



31.10.2018 holati bo'yicha

Viza berilishini rad etilishi/apellyatsiya berish jarayoni

Viza bo'limi tomonidan viza rad etilgan holda arizachiga rad javobini asoslovchi asosiy sabablar ma'lum qilinadi. Viza bo'limining rad javoblarida bunga asos bo'lgan har bir sabab haqida ma'lumot beriladi!

Apellyatsiya xati berish uchun sayoxat byurolari yoki boshqa tijorat firmalariga murojaát qilish shart emas.

Agar Siz rad javobi sabablarini qo'shimcha hujjatlar va tushuntirish xatlari taqdim etish orqali bartaraf etmoqchi bo'lsangiz, rad javobi haqidagi qarorni bekor qilish uchun apellyatsiya berishingiz va so'rovnomaingiz qayta ko'rib chiqilishini so'rashingiz mumkin.

E'tiboringizni apellyatsiya xatlarini ko'rib chiqish jarayoni 3 oygacha davom etishi mumkinligiga qaratmoqchimiz. Rad javobi olgan arizachi apellyatsiya xati yozmay, viza olish uchun qaytadan yangi ariza topshirishi ham mumkin. Ikkala holatda ham avvalgi rad javobiga sabab bo'lgan omillar bartaraf qilinmagan bo'lsa, yana rad javobi olishingiz mumkin.

Shengen vizasi bo'yicha apellyatsiya berish muddati rad javobi olingan kundan boshlab 1 oyni tashkil qiladi. Apellyatsiya arizasi va apellyatsiya jarayonida qo'shimcha tarzda so'ralgan hujjatlar nemis tilida yozma ravishda pochta orqali juborilishi yoki bevosita elchixonaga topshirilishi lozim. Arizachining shaxsiy imzosisiz yoki arizachining ishonchnomasisiz taqdim etilgan apellyatsiya arizalari korib chiqilmaydi. Shuningdek elektron pochta orqali apellyatsiya berish imkoniyati ham mayjud. Bunda arizachi shaxsan imzolagan apellyatsiya xati skanerdan o'tkazilib, yuboriladi.

Apellyatsiya arizasida quyidagi ma'lumotlar qayd etilgan bo'lishi kerak:

- F.I.SH., tug'ilgan sana, arizachining pasport raqami,
- Rad javobi berilgan qaror sanasi va ish raqami,
- To'liq pochta manzilingiz (ko'cha, uy, xonodon, yashash joyi, pochta indeksi),
- Arizachining shaxsiy imzosi (yoki arizachi tomonidan shaxsan imzolangan vakolatnoma, agar uning o'zi apellyatsiya bermasa),
- Arizachi rad javobini nima uchun asossiz deb hisoblashining bat afsil ta'rifi,
- Germaniyaga rejalshtirilgan safardan maqsad va arizachi uchun uning amalga oshirilishi qaysi sabablarga ko'ra muhimligining bat afsil ta'rifi,
- Arizachining dalillarini tasdiqlovchi va talabnoma bilan avval taqdim etilmagan qo'shimcha hujjatlar.

O'rnatildan tartibda va muddatda yuborilgan apellyatsiya arizasi elchixonaga kelgandan so'ng, viza so'rovnomasini qaytadan sinchiklab ko'rib chiqiladi. Aynan apellyatsiya arizasining ko'rib chiqish jarayonida taqdim etilgan qo'shimcha hujjatlar va appellatsiya arizasidagi asoslar inobatga olinadi. So'ralgan vizani berish imkoniyati mayjud bo'lsa, arizachi elchixonaga, viza berish maqsadida, chaqiriladi. Aks holda arizachi rad javobi sabablari izohlangan inkor xatini (rad etish qarori) oladi.